



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



OTLI BIRIKMALARDA BOSH VA TOBE KOMPONENTLAR MUNOSABATI

Davronova Zarina Jo'rabek qizi

Samarqand davlat chet tillar instituti talabasi

Annotatsiya : *Mazkur maqolada soʻz birikmasining sintaktik tabiatini tizimli yondashuv asosida oʻrganish masalalari yoritiladi. Soʻz birikmasining hokim va tobe komponentlari, ularning oʻzaro grammatik va semantik munosabatlari tahlil qilinadi. Otli va feʼlli soʻz birikmalarining tuzilishi, komponentlarning erkin birikish xususiyati hamda ularning nutq jarayonidagi roli ochib beriladi. Shuningdek, soʻz birikmasining ikki tomonlama yaxlit va tarkiban boʻlinuvchan birlik sifatidagi tabiati asoslanadi. Natijada soʻz birikmalarini shakl va mazmun birligida oʻrganish tilning sintaktik tizimini chuqur anglashda muhim omil ekanligi koʻrsatiladi.*

Kalit soʻzlar: *soʻz birikmasi, hokim komponent, tobe komponent, sintaktik munosabat, otli birikma, feʼlli birikma, sintaksis.*

ОТНОШЕНИЕ ГЛАВНОГО И ЗАВИСИМОГО КОМПОНЕНТОВ В ИМЕННЫХ СЛОВСОЧЕТАНИЯХ

Давронова Зарина Жўрабек кизи

Студентка Самаркандского государственного института иностранных языков

Абстрактный:

В статье рассматриваются вопросы системного изучения словосочетания как синтаксической единицы. Анализируются отношения между главным и зависимым компонентами, их грамматические и семантические особенности. Освещаются структура именных и глагольных словосочетаний, их свободная сочетаемость и роль в речевом процессе. Обосновывается двойственная природа словосочетания как целостной и в то же время членимой единицы. В результате подчеркивается значение изучения словосочетаний в единстве формы и содержания.

Ключевые слова: *словосочетание, главный компонент, зависимый компонент, синтаксические отношения, именное словосочетание, глагольное словосочетание, синтаксис.*

Soʻz birikmasi tarkibida kamida ikki mustaqil soʻz ishtirok etib, ulardan biri hokim, ikkinchisi esa tobe komponent sifatida namoyon boʻladi. Hokim komponent birikmaning



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



grammatik va semantik markazi bo‘lib, u asosiy ma‘noni ifodalaydi.⁸¹ Tobe komponent esa hokim so‘zni aniqlashtiradi, to‘ldiradi yoki izohlaydi. Tobe-hokimlik munosabatini yozuvda ifodalash uchun strelkadan foydalaniladi. Strelka nayzasi tushgan bo‘lak hokim, strelka boshlangan bo‘lak tobe sanaladi. So‘z birikmasida hokim va tobe munosabat o‘zaro bog‘liqlik asosida yuzaga keladi. Bunda tobe komponent shakl jihatidan hokim so‘zga moslashadi va uning talabiga ko‘ra turli grammatik ko‘rsatkichlarni qabul qiladi. Masalan, “maktabga borish”, “kitobni o‘qish” kabi birikmalarda hokim va tobe elementlar o‘zaro sintaktik aloqaga kirishib, yaxlit ma‘no hosil qilgan. O‘zbek tilida odatda tobe komponent hokim so‘zdan oldin keladi. Bu holat birikma tarkibidagi so‘zlar o‘rtasidagi munosabatni aniqlashda muhim rol o‘ynaydi. Tobe komponent hokim elementning ma‘nosini turli jihatdan aniqlashtirib, konkretlashtirish vazifasini bajaradi. Masalan, “yaxshi kitob”, “qizil gul” kabi birikmalarda aniqlovchi komponent hokim so‘zning ma‘nosini kengaytiradi. Turli turkum so‘zlari hokim so‘z vazifasida kela oladi. Masalan, kitobning muqovasi (hokim so‘z – ot), guldan nozik (hokim so‘z – sifat), tovushdan tez (hokim so‘z – ravish), Nasibaning o‘zi (hokim so‘z – olmosh), qizlardan uchtasi (hokim so‘z – son), uyda yo‘q (hokim so‘z – modal so‘z), kitobni o‘qib (hokim so‘z – ravishdosh), yomg‘ir yog‘gan (hokim so‘z – sifatdosh), xat yozmoq (hokim so‘z – harakat nomi).

So‘z birikmasi hokim so‘zning qaysi turkumga oid so‘z bilan ifodalanishiga qarab ikki guruhga bo‘linadi: otli so‘z birikmasi, fe‘lli so‘z birikmasi.

Otli so‘z birikmasida hokim so‘z ot va otlashgan so‘zlar bilan ifodalanadi: shaharning ko‘chalari, hammasidan katta, chumchuqning chug‘ur-chug‘uri, o‘quvchilarning beshtasi, beqiyos o‘lka, katta qishloq.

Otli so‘z birikmasida quyidagi so‘z turkumlari o‘zaro bog‘lanadi:

ot + ot → maktabning bog‘i

sifat + ot → katta bog‘

son + ot → beshta daftar

olmosh + ot → shu bola

ravish + ot → ko‘p kitoblar

sifatdosh + ot → o‘qigan qiz

harakat nomi + ot → o‘qimoq orzusi

taqlid so‘z + ot → taq-tuq ovoz

ravish + sifat → juda chiroyli

ot + sifat → pichoqdan o‘tkir

ot + son → bolalarning ikkitasi

ot + taqlid so‘z → otning dupur-dupuri

ot + olmosh → onaning o‘zi

⁸¹ A. Fuломov, M. Asqarova. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Синтаксис. – Т.: Ўқитувчи, 1987. – Б. 40–41.



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



ot + ravish → shamoldan tez

Demak, otli birikmalarda bosh va tobe komponentlar o‘rtasidagi munosabat grammatik shakl, ma’no va tartib asosida yuzaga kelib, birikmaning yaxlit sintaktik tuzilishini ta’minlaydi. So‘z birikmalari o‘z tabiatiga ko‘ra erkin sintaktik tuzilmalar hisoblanadi. Bunda birikma tarkibidagi komponentlar o‘zaro qat’iy, o‘zgarmas bog‘lanishda emas, balki nisbatan erkin munosabat asosida birikadi. Shu sababli bir xil so‘z turli nutqiy vaziyatlarda boshqa-boshqa birliklar bilan bog‘lanib, xilma-xil so‘z birikmalarini hosil qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi. So‘z birikmalarining erkinligi ularning nutq jarayonida faol qo‘llanishini ta’minlaydi. Har bir mustaqil so‘z o‘zining leksik va grammatik xususiyatlariga ko‘ra turli komponentlar bilan birikib, yangi sintaktik qurilmalarni yuzaga keltiradi. Natijada bir so‘z asosida turli mazmun va vazifaga ega bo‘lgan ko‘plab birikmalar shakllanishi mumkin. Masalan, “Universitet” so‘zi “namunali universitet”, “universitetga bormoq” kabi turli shakllarda boshqa so‘zlar bilan bog‘lanib, har xil sintaktik munosabatlarni ifodalaydi. Bu esa so‘z birikmasining erkinligi tilning boyligi va ifoda imkoniyatlarining kengligini ko‘rsatadi.

So‘z birikmasi kamida ikki mustaqil leksik ma’noga ega bo‘lgan so‘zlarning grammatik qonun-qoidalariga muvofiq ravishda o‘zaro birikishidan hosil bo‘ladigan murakkab sintaktik birlikdir. Bunday birlik tarkibidagi komponentlar o‘zaro bog‘langan holda yaxlit ma’noni ifodalaydi, shu bilan birga, ularning har biri alohida leksik ma’noga ham ega bo‘ladi.⁸² So‘z birikmasining muhim xususiyatlaridan biri uning ikki tomonlama tabiatida namoyon bo‘ladi. Bir tomondan, u yaxlit bir semantik birlik sifatida qaraladi, ya’ni umumiy mazmuni ifodalaydi. Ikkinchi tomondan esa, uning tarkibiy qismlari mustaqil leksik birliklar bo‘lib, o‘z ma’nolarini saqlab qoladi. Shu sababli so‘z birikmasi ham bir butun, ham tarkiban bo‘linuvchi sintaktik birlik sifatida tavsiflanadi. Mazkur xususiyat so‘z birikmasini boshqa sintaktik birliklardan ajratib turadi. Chunki birikma tarkibidagi so‘zlar o‘zaro mustahkam grammatik bog‘lanishga ega bo‘lsa-da, ular to‘liq birlashib ketmaydi, balki ma’lum darajada mustaqilligini saqlab qoladi. Masalan, “yangi kitob” birikmasida umumiy ma’no yagona predmetni bildiradi, biroq “yangi” va “kitob” so‘zlari alohida leksik ma’no larini yo‘qotmaydi. Bunda birikma tarkibidagi komponentlar o‘zaro nisbatan erkin munosabatga kirishadi va qat’iy, o‘zgarmas qolipga bog‘lanib qolmaydi. Shu sababli bir so‘z turli nutqiy vaziyatlarda boshqa ko‘plab so‘zlar bilan bog‘lanib, xilma-xil so‘z birikmalarini hosil qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu holat tilning ifoda imkoniyatlari kengligi va sintaktik tizimining moslashuvchanligini ko‘rsatadi. Biroq har qanday ikki yoki undan ortiq mustaqil so‘zlarning oddiy qo‘shilishi har doim ham so‘z birikmasini yuzaga keltirmaydi. So‘z birikmasi hosil bo‘lishi uchun uning tarkibidagi komponentlar o‘zaro ma’noviy va grammatik jihatdan bog‘langan bo‘lishi zarur. Ya’ni ular o‘rtasida muayyan sintaktik munosabat mavjud bo‘lib,

82

Ш. Раҳматуллаев. Ҳозирги ўзбекадабий тили. – Т.: Университет, 2006. – Б. 110.



bu munosabat orqali so‘zlar bir-birini aniqlaydi, to‘ldiradi yoki izohlaydi.⁸³ Shuningdek, so‘z birikmasi tarkibidagi birliklar bir butun holda yaxlit ma‘noni ifodalashi bilan birga, ichki tuzilish jihatidan qismlarga ajraluvchan bo‘ladi. Uning komponentlari alohida leksik ma‘noga ega bo‘lib qoladi, ammo birikma tarkibida ular o‘zaro uyg‘unlashib, umumiy semantik birlikni yuzaga keltiradi.

So‘z birikmasining ma‘nosi alohida so‘zga nisbatan ancha aniq va konkret bo‘lsa-da, umumlashtirish darajasi jihatidan undan torroq hisoblanadi. Ma‘lumki, so‘zning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri uning umumlashtiruvchilik tabiatidir. Ya‘ni so‘z ma‘lum bir turkumga mansub predmet, belgi yoki hodisalarni umumiy holda ifodalaydi. Shu bois tilshunoslikda ham so‘zning umumlashtiruvchi xususiyati alohida ta‘kidlanadi. Masalan, “uy” so‘zi odam yashashi yoki faoliyat yuritishi uchun mo‘ljallangan joyni umumiy tarzda ifodalaydi. Bu yerda so‘z aniq bir predmetni emas, balki shu turkumga kiruvchi barcha obyektlarni umumlashtirib keladi. So‘z birikmasida esa bu umumiy ma‘no ma‘lum darajada torayadi va konkretlashadi. Ya‘ni birikma tarkibidagi so‘zlar o‘zaro bog‘lanib, umumiy tushunchani aniqlashtiradi va uni aniqroq mazmunda ifodalaydi. Shu xildagi predmetlarning hammasi ham uy. Bu so‘z shu xildagi predmetlarning hammasini umumlashtirib, keng ma‘noda qo‘llanadi. Uy so‘zining oldidan turli aniqlovchilarni keltirish bilan so‘z birikmalari hosil qilinganda (baland uy, past uy, katta uy, kichik uy, chiroyli uy, bir qavatli uy, besh qavatli uy, yangi uy, eski uy va h.k. kabi) uy so‘zining ma‘nosi yaxlitlashadi, konkretlashadi va torayadi, ya‘ni u endi umuman bir turdagi predmetlarni umumlashtirib emas, shulardan faqat birini ajratib ko‘rsatadi. Palto so‘zi kiyimning bir turini bildiruvchi so‘z, lekin uning oldidan aniqlovchi keltirib, so‘z birikmasi hosil qilinganda (qishlik palto kabi) endi har qanday tashqi kiyimni emas, tashqi kiyimning bir turini, faqat qishda kiyiladigan qalin paltoni bildiradi. So‘z birikmalarining ma‘nosi, asosan, uning tarkibiy komponentlarining semantik xususiyatlariga bog‘liq holda shakllanadi. Birikma tarkibidagi so‘zlarning lug‘aviy ma‘nosi o‘zaro ta‘sirga kirishib, umumiy mazmunni yuzaga keltiradi. Shu sababli bir xil tuzilishga ega bo‘lgan va bir xil boshqaruvchi so‘z asosida tashkil topgan so‘z birikmalari ham turli ma‘nolarni ifodalashi mumkin.⁸⁴ Masalan, “qalam ushlamoq” va “baliq ushlamoq” birikmalarini olaylik. Har ikkala birikmada ham boshqaruvchi komponent bir xil – “ushlamoq” fe‘li, tobe komponentlar esa ot turkumiga mansub. Tuzilish jihatidan ular bir xil bo‘lsa-da, ifodalagan ma‘nolari bir-biridan keskin farq qiladi. Bu holat “ushlamoq” fe‘lining turli semantik qirralarda qo‘llanishi bilan izohlanadi. Demak, bir xil strukturaga ega bo‘lgan so‘z birikmalarining turlicha ma‘nolarni ifodalashi, avvalo, boshqaruvchi komponentning qaysi semantik turdagi so‘z bilan bog‘lanayotganiga bog‘liqdir. Ya‘ni hokim komponentning ma‘nosi tobe komponent bilan o‘zaro munosabatda aniqlashib, yangi semantik tus kasb etadi. So‘z birikmasining ma‘nosi

⁸³ Ш. Раҳматуллаев. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Т.: Университет, 2006. – Б. 115

⁸⁴ О. С. Ахманова. Очерки по общей и русской лексикологии. – М., 1957. – С. 167.



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



faqat yetakchi, ya’ni boshqaruvchi komponentning ma’nosiga bog‘liq bo‘lib qolmay, balki boshqariluvchi komponentning semantik xususiyatlariga ham katta darajada aloqador bo‘ladi. Shu bilan birga, har qanday ikki yoki undan ortiq so‘zlarning oddiy qo‘shilishi natijasida hamisha so‘z birikmasi yuzaga kelavermaydi. So‘zlarning o‘zaro birikib, sintaktik birlik hosil qilishi faqat ularning qaysi so‘z turkumiga mansubligiga emas, balki leksik ma’nolarining o‘zaro mosligiga ham bevosita bog‘liqdir. Har bir so‘z ma’lum bir semantik guruhga mansub bo‘lib, odatda aynan shu guruhga kiruvchi so‘zlar bilan birikadi va shu asosda so‘z birikmasini hosil qiladi. Masalan, “o‘qimoq” fe’li faqat ma’lum semantik xususiyatga ega bo‘lgan so‘zlar bilan bog‘lanadi:

Obyekt bildiruvchi so‘zlar bilan: kitob o‘qimoq, gazeta o‘qimoq, jurnal o‘qimoq;

O‘rin bildiruvchi so‘zlar bilan: maktabda o‘qimoq, institutda o‘qimoq;

Holat yoki usulni bildiruvchi so‘zlar bilan: qunt bilan o‘qimoq;

Payt bildiruvchi so‘zlar bilan: qishda o‘qimoq, yozda o‘qimoq;

Daraja va tezlikni bildiruvchi so‘zlar bilan: tez o‘qimoq, sekin o‘qimoq;

Miqdor bildiruvchi so‘zlar bilan: ko‘p o‘qimoq, oz o‘qimoq;

Usul bildiruvchi birliklar bilan: yoddan o‘qimoq va hokazo. Xuddi shuningdek, “o‘chirmoq” fe’li ham turli semantik guruhdagi so‘zlar bilan birikadi. Masalan: yong‘inni o‘chirmoq, ovozni o‘chirmoq, xatni o‘chirmoq, doskani o‘chirmoq, ro‘yxatdan o‘chirmoq va boshqalar.

So‘z birikmalari ikki yoki undan ortiq mustaqil so‘zlarning analitik usulda o‘zaro birikishi natijasida yuzaga keladigan sintaktik butunlikdir. Bunday birlik tarkibida ishtirok etuvchi so‘zlarning biri bosh, ya’ni hokim komponent bo‘lib, ikkinchisi unga bo‘ysunuvchi, ya’ni tobe komponent hisoblanadi. Tobe komponent har doim hokim so‘zni ma’lum bir jihatdan aniqlashtirish, to‘ldirish yoki izohlash vazifasini bajaradi.⁸⁵ Shu jihatdan qaralganda, so‘z birikmalari so‘zlarning o‘zaro ergashish munosabati asosida bog‘lanishidan hosil bo‘ladi. Ya’ni bu birlikda komponentlar teng emas, balki biri yetakchi, ikkinchisi unga bo‘ysunuvchi holatda keladi. Aynan shu ergashish munosabati so‘z birikmalarining eng muhim va xarakterli belgilaridan biri hisoblanadi. Bosh, ya’ni hokim komponent so‘z birikmasi tarkibida alohida ahamiyat kasb etadi va o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘ladi. Avvalo, hokim so‘z har doim mustaqil leksik ma’noga ega bo‘lgan birlik hisoblanadi. U birikma tarkibida yetakchi rolni bajarib, butun konstruktsiyaning semantik va grammatik markazi sifatida namoyon bo‘ladi. So‘z birikmasining umumiy ma’nosi aynan hokim komponent asosida shakllanadi. Tobe komponent esa ushbu markaziy ma’noni aniqlashtirish, kengaytirish yoki konkretlashtirish vazifasini bajaradi. Shu sababli birikma tarkibidagi asosiy yuk hokim so‘z zimmasiga tushadi. Hokim komponentning qaysi so‘z turkumiga mansubligi so‘z birikmasining tuzilishi va modelini belgilovchi asosiy omillardan biridir. Ya’ni birikmaning

⁸⁵ M. K. Шарипов. Ҳозирги ўзбек тилида сўз бирикmalari синтаксиси масаласи. – Тошкент: Ўзбекистон ССР «Фан» нашриёти, 1978. – Б. 14



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



strukturasi, komponentlarning joylashuvi hamda ularning o‘zaro bog‘lanish shakli ko‘p jihatdan hokim so‘zning grammatik tabiatiga bog‘liq bo‘ladi.⁸⁶ Masalan, ot hokim bo‘lgan birikmalarda aniqlovchi komponentlar ko‘proq sifat, son yoki boshqa otlar orqali ifodalanadi, fe‘l hokim bo‘lgan birikmalarda esa tobe komponentlar ko‘pincha kelishik qo‘shimchalari orqali bog‘lanadi. Bundan tashqari, hokim komponent birikma tarkibidagi tobe so‘zning grammatik shaklini ham belgilaydi. Ya‘ni tobe element hokim so‘zning talabiga ko‘ra ma‘lum shaklga kiradi, bu esa sintaktik bog‘lanishning muhim ko‘rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Masalan, “kitobni o‘qimoq” birikmasida tobe komponent tushum kelishigida kelishi hokim fe‘lning talabiga bog‘liqdir. Hokim so‘zning qaysi turkumga mansubligi uning qaysi so‘zlar bilan bog‘lana olishini ham belgilaydi. Har bir so‘z turkumi ma‘lum semantik va grammatik imkoniyatlarga ega bo‘lib, shu doirada boshqa birliklar bilan munosabatga kirishadi. Masalan, ot boshqa ot bilan birikib “kitob muqovasi” kabi birikmani hosil qilishi mumkin, biroq ravish bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri birikishi odatda kuzatilmaydi. Hokim komponent so‘z birikmasining markaziy elementi bo‘lib, uning semantik mazmuni, grammatik qurilishi hamda komponentlar o‘rtasidagi munosabatni belgilovchi asosiy omil sifatida xizmat qiladi. Olima Sayfullayeva hokim va tobe so‘z birikmasi borasida shunday deydi: “So‘z birikmasida ma‘nosi muayyanlashtirilayotgan so‘z hokim a‘zo, uning ma‘nosini muayyanlashtiruvchi so‘z esa tobe a‘zo deyiladi”(masalan, kitobni o‘qimoq birikmasida kitobni – tobe, o‘qimoq – hokim a‘zodir).⁸⁷ Bir so‘z bir nechta so‘zni o‘ziga tobe a‘zo sifatida biriktirishi mumkin. Lekin so‘z birikmasida bir so‘z faqat bitta a‘zoga tobe a‘zo sifatida bog‘lanishi mumkin, xolos. Masalan, katta, chiroyli gulchambar birikmasida gulchambar so‘zi ikkita so‘zga hokim hisoblanadi. Lekin chiroyli so‘zi faqat bitta so‘zga tobe. Hokim mavqeda yuzaga chiqayotgan leksema o‘zining hokim, tobe vazifada yuzaga chiqayotgan leksema esa o‘zining tobe valentligini namoyon qiladi. Hokim va tobe a‘zo vazifalari ularning grammatik shakli va sintaktik o‘rni asosida belgilanadi. Tobe a‘zo, odatda, oldin kelib, keyingi so‘zning ma‘nosini izohlashga xizmat qiladi va bunga mos grammatik ko‘rsatkichlar bilan shakllanadi, shuningdek, ma‘lum sintaktik o‘ringa ega bo‘ladi. O‘zbek nutqida, odatda, hokim so‘z keyin, tobe so‘z esa oldin keladi. Nutqiy inversiya (hokim va tobe so‘z tartibining buzilishi) asosidagi so‘z birikmalarigina bundan mustasno: o‘qidim kitobni, Dilshoda – hamshira kabi. Hokim so‘z kengayuvchi, tobe so‘z esa kengaytiruvchi so‘z deb ham yuritiladi. “Kengayuvchi” va “kengaytiruvchi” atamalari nisbiy mohiyatga ega bo‘lib, ular shaklga nisbatan qo‘llangandagina to‘g‘ri bo‘ladi.⁸⁸ Masalan, kitobni o‘qimoq birikmasida o‘qimoq so‘ziga yana bir so‘z birikadi va so‘zlar soni ikkita bo‘lib, shakliy “yoyilish”, ya‘ni

⁸⁶ Б. Мадалиев. Ҳозирги ўзбеки тилида қўшма сўзлар. – Тошкент: «Фан» нашриёти, 1973. – Б. 118

⁸⁷ Sayfullayeva R.R. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2010. – B. 247

⁸⁸ R. R. Sayfullayeva, B. R. Mengliyev, G. H. Boqiyeva, M. M. Qurbonova, Z. Q. Yunusova, M. Q. Abuzalova. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2010. – B. 250



kengayish yuz beradi. Shakliy kengayish esa ma'noviy torayishni vujudga keltiradi. Bunda shakl va mazmun dialektikasi yanada yaqqolroq namoyon bo'ladi. Chunki o'qimoq leksemasining ma'nosi keng bo'lib, u o'qiladigan barcha narsalarga nisbatan bajariladigan harakatni ifodalaydi. Kitobni o'qimoq birikmasida esa ushbu umumiy ma'no torayib, faqat "kitob ustida bajariladigan harakat"ni bildiradi. "Kengayuvchi" atamasini faqat bosh so'zga, "kengaytiruvchi" atamasini esa faqat ergash so'zga xos qilib qo'yish ham biryoqlama yondashuvdir. Zero, kitobni o'qimoq birikmasida kitob leksemasi tobe, o'qi leksemasi hokim valentligini namoyon qilgan bo'lsa-da, ayni paytda o'qimoq so'zi kitobni so'z shakli uchun ma'noviy toraytiruvchi va shakliy kengaytiruvchi vazifani ham bajaradi. Chunki kitobni so'z shakli o'timli harakatni ifodalovchi turli leksemalar bilan bog'lanish imkoniyatiga ega. O'qimoq so'zi bilan birikish natijasida unda ma'noviy torayish va shakliy kengayish yuz beradi.

So'z birikmalarining eng muhim va xarakterli xususiyatlaridan biri ularning erkin birikish xususiyatiga ega ekanligidir. Leksik ma'noga ega bo'lgan so'zlar turli grammatik vositalar yordamida o'zaro bog'lanib, murakkab, lekin tarkiban bo'linuvchan tushunchalarni ifodalovchi sintaktik birlikni hosil qiladi.⁸⁹ So'z birikmalarining erkinligi nutq jarayoni bilan bevosita bog'liqdir. Nutq davomida so'zlovchi o'z fikrini aniq va ravon ifodalash uchun zarur bo'lgan so'zlarni tanlaydi va ularni o'zaro bog'lab, so'z birikmalarini shakllantiradi. Shu jihatdan qaralganda, so'z birikmalari tayyor qolip sifatida emas, balki nutq jarayonining o'zida yuzaga keladigan dinamik birlik sifatida namoyon bo'ladi. So'zlarning qaysi birliklar bilan birikishi, ularning o'zaro bog'lanish shakli va mazmuni ko'p jihatdan ayni nutqiy vaziyat bilan belgilanadi. Ya'ni so'z birikmalari nutq momentining o'zida hosil bo'lib, kommunikativ ehtiyojga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. А. Фуломов, М. Асқарова. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Синтаксис. – Т.: Ўқитувчи, 1987.
2. Ш. Раҳматуллаев. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Т.: Университет, 2006. – Б. 110.
3. О. С. Ахманова. Очерки по общей и русской лексикологии. – М., 1957.
4. М. К. Шарипов. Ҳозирги ўзбек тилида сўз бирикмалари синтаксиси масаласи. – Тошкент: Ўзбекистон ССР "Фан" нашриёти, 1978.
5. Б. Мадалиев. Ҳозирги ўзбек тилида қўшма сўзлар. – Тошкент: "Фан" нашриёти, 1973.
6. Sayfullayeva R.R. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: "Fan va texnologiya", 2010.
7. Е. В. Кротович. Словосочетание как строительный материал предложения //

В

⁸⁹ Е. В. Кротович. Словосочетание как строительный материал предложения // Вопросы славянского языкознания. Кн. 4. Изд-во Львовского университета, 1955. – С. 59.

Р

О

С

Ы